

DIZAYN-KOD TAMOILLARI ASOSIDA TARIXIY HUDUDLAR UCHUN KICHIK ARXITEKTURAVIY SHAKLLARNI LOYIHALASH YECHIMLARI

Matniyazov, Zafarbek

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan
ORCID: 0000-0001-7269-8127
zafar18@mail.ru

Elmurodov, Samidullo

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan
ORCID: 0009-0005-2351-8122
samidullo1990@mail.ru

Tajibaev, Jurat

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan
ORCID: 0009-0001-4544-8103
jurat0388@gmail.com

Rasul-Zade, Lobar

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan
lobar.rasulzade@bk.ru

Saidkhonova, Umida

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan
ORCID: 0009-0003-1975-5657
umidasaidxonova24@gmail.com

Abstract. Maqolada shaharning tarixiy hududlari uchun kichik arxitekturaviy obyektlarni dizaynini ishlab chiqish usullari, qoidalari, moslashtirish yo'llari, muhokama qilinadi. Kichik arxitekturaviy obyektlar nafaqat binolarni bezatibgina qolmay, balki funktsional vazifalarni bajaradigan detallardir. Ushbu maqolada biz kichik arxitekturaviy obyektlar uchun dizayn kodini ishlab chiqish jarayonini ko'rib chiqamiz. O'zbekistonning tarixiy hududlari, etnik-madaniy an'analarida mos kichik arxitekturaviy shakllarni ishlab chiqish tamoyillari ko'rsatib berilgan. Tanlangan hududning tarixiy markazlari uchun kichik arxitekturaviy obyektlarini konseptsiyasi dizayn kod tamoyillari asosida ishlab chiqishga oid misollar ko'rsatib berilgan.

Key words: *kichik arxitekturaviy shakllar, tarixiy hudud, dizayn, arxitektura, obyektlar, dizayn kod, shahar dizayn kodi.*

Introduction. Yurtimizda kiyingi yillarda boy tarixiy madaniy merosini asrab avaylash hamda

ularni asl qiyofasini saqlab qolishga oid ko'plab ishlar olib borilmoqda. Tarixiy shaharlarimizning jozibasini sayyohlarga asl holicha namoyon etish va turizim salohiyatini oshirishga katta etbor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan Buxoro va Samarqand viloyatlarida joylashgan ma'naviy va moddiy madaniyat yodgorliklari, joylashgan hududlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Albatta tahsinga sazovar natijalar bilan birga bir qancha muammolar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu o'rinda takidlash joizki tarixiy hududlarining qiyofasini saqlashda har bir elementga alohida etibor qaratish kerak, jumladan kichik arxitekturaviy shakllarni shahar ko'chalarida qo'llanilishigaham. Kichik arxitekturaviy shakllarni shahar ko'chalarida tartibli va hududning madaniy meros obyektlari qiyofasiga hamohang qo'llash zarur. Buning uchun shaharning dizayn kod tamoillari asosida joylashtirish shart. Dizayn kodeksining ahamiyati Dizayn kod nima va u qanday tamoillarni o'z ichiga oladi? degan savolga biroz to'xtalib o'tamiz. Dizayn kodeksi kichik me'moriy obyektlarni loyihalash uchun qoidalar va ko'rsatmalar to'plamidir. Ushbu qoidalar to'plami obyektlarni loyihalashda bir xillikni ta'minlashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida binolarning estetik va funktsional ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Dizayn kodi tufayli me'morlar va dizaynerlar binoning uslubi va umumiy kontseptsiyasiga mos keladigan obyektlarni yaratishi mumkin. Shahar dizayn kodi nima? Bu atama shahar makonining vizual dizaynini tartibga solishni nazarda tutadi.

- Navigatsiya ko'rsatgichlari, malumot taxtalari.
- Fasadlarda reklama belgilarini tartibli joylashtirish.
- Davlat va tijorat binolarining fasadlarini, kirish qisimlarini bezash.
- Nostatsionar savdo obyektlarini joylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish, jamoat transporti to'xtash joylari.
- Barcha jamoat joylari uchun yagona uslubdagi kichik arxitekturaviy shakllarni o'rnatish.
- Ko'cha yoki uylar arxitekturasini himoya qilish uchun cheklovlar qo'yish.

Material and methods.

– Dizayn kodini loyihalash bosqichlari. Dizayn kodini ishlab chiqishda birinchi qadam tadqiqot o'tkazishdir. O'rganish jarayonida me'morchilikda qo'llaniladigan tegishli uslublarni, shuningdek, kichik arxitekturaviy shakllarni loyihalash tamoyillarini o'rganish kerak. Bu dizayn kodiga qaysi elementlarni kiritish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

– Qoidalarni aniqlash. Keyingi qadam dizayn kodiga kiritilishi kerak bo'lgan qoidalarni aniqlashdir. Ushbu qoidalar materiallar, shakl, rang, to'qimalar va tegishli nisbatlar kabi masalalarni hal qilishi mumkin. Bundan tashqari, kichik arxitekturaviy shakllarning funktsional xususiyatlariga oid qoidalar, masalan, foydalanish qulayligi va xavfsizligi dizayn kodeksiga kiritilishi mumkin.

– Misollar ishlab chiqish. Qoidalar aniqlangandan so'ng, keyingi qadam dizayn kodeksiga mos keladigan kichik arxitekturaviy shakllarning namunalarni ishlab chiqishdir. Bu me'morlar va dizaynerlarga dizayn kodiga qanday amal qilishni va binoning umumiy kontseptsiyasiga mos keladigan obyektlarni qanday yaratishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

– Sinov va qo'llash. Oxirgi qadam dizayn kodini sinab ko'rish va qo'llashdir. Dizayn kodini sinovdan o'tkazishda siz uning samarali ishlashiga ishonch hosil qilishingiz kerak va binoning umumiy kontseptsiyasiga mos keladigan obyektlarni yaratishga yordam beradi. Sinovdan so'ng dizayn kodi

kichik arxitekturaviy shakllarni loyihalashda bir xillikni ta'minlash maqadida turli loyihalarga qo'llanilishi mumkin.

Hozirda bu sohada xalq ijodiyoti madaniy va mintaqaviy xususiyatlarni vizual tarzda aks ettiruvchi muhit mavjud emas. Shuning uchun dizaynerlar kichik arxitekturaviy shakllarni yaratishda dizayn muammolariga duch kelishadi (bundan buyon matnda KASH deb yuritiladi).

Kichik arxitektura shakllari shahar miqyosida landshaft dizaynidagi kichik me'moriy shakllar ijtimoiy kayfiyatni yaxshilaydi, ma'muriyatga ishonch darajasini oshiradi. Shuning uchun ular takomillashtirishning muhim elementiga aylanadi, loyihalarga tugallangan, estetik ko'rinish beradi. Kichik arxitektura shakllar oddiy funktsiyalarni bajarish bilan birga me'moriy kompozitsiyani to'ldiradigan badiiy va dekorativ tuzilma ham hisoblanadi.

- Sayyohlarning qulaylik darajasini oshirish.
- Hududni bezash.
- Funktsional hududlarni ajratish.
- Landshaft dizaynida diqqatga sazovar joylarni belgilash.
- Jamoat maydonini umumlashtirish.

Zamonaviy obodonlashtirish elementlari va kichik arxitekturaviy shakllar foydalilik va dekorativlikni birlashtiradi. Ular amaliy qo'llanmalarni topish bilan birga san'at asariga o'xshaydi. Bular kanopli g'ayrioddiy skameykalar, axborot ko'rsatgichlari, o'yin majmualari, yoritish ustunlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan hududlarni obodonlashtirish uchun faqat go'zallik yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Arxitektorlar shahar makonini yaxshilash loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok eta boshladilar. Ular odamlarning haqiqiy ehtiyojlaridan boshlanib, ko'cha mebellari, o'yin maydonchalari, turli jihozlarni parklar yoki boshqa jamoat joylari uchun kichik me'moriy shakllargacha bo'lgan bir qancha elementlarni o'zida qamrab oldi. Avtomobil qatnov yo'llarini loyihalashda, uning atrof-muhitini tashkil etishda ham kichik me'moriy shakllarga alohida e'tibor qaratildi [1].

Kichik arxitekturaviy shakllarni yaratish hududga tashrif buyuruvchilar ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanadi. So'rovlar shuni ko'rsatadiki, odamlar ko'proq skameykalar, belanchaklar, besedkalar, stollar, veloparkovkalarni ko'rishni xohlashadi. Ammo agar siz shahar atrofida tartibsiz jihozlar yoki ko'cha mebellarini joylashtirsangiz, bu juda oddiy, zerikarli bo'ladi. Tarixiy obidalar joylashgan binolar hududida kichik arxitektura shakllarni betartib o'rnatish obyektning qadr-qimmatini pasaytirish bilan birga hudud qiyofasini idrok etishda salbiy ta'sir o'tkazadi (1-rasm).




Figure 1. Buxoro shahri tarixiy obidalarining vizual himoya zonasida joylashgan kichik arxitektura shakllar.

Kichik arxitekturaviy shakllar quyidagilarni o'z ichiga oladi. Jamoat transporti bekatlarini, dam olish uchun skameykalar, to'siqlar, funktsional ko'cha chiroqlari, chiqindi qutilari, ma'lumot yorug'lik qutilari va boshqalar.

Kichik arxitekturaviy shakllarni kontseptsiyasi qidirishni boshlashdan oldin Shaharning tarixiy hududiga tashrif buyuruvchilar muzey xodimlari, o'qituvchilar va mahalliy aholi o'rtasida biz so'rov o'tkazdik. Biz ularning o'z mintaqasi tarixidan xabardorlik darajasi bilan qiziqdik.

Kichik arxitekturaviy shakllar dizaynida qo'llangan yaxshi ijodiy g'oyalar, ommaviy axborot vositalari, tashrif buyuruvchilar va sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Odamlar ajoyib arxitekturaviy shakllarni ko'rish uchun boshqa shahardan kelishlarini ta'minlaydi.

Shaharning tarixiy hududlari uchun kichik arxitekturaviy shakllarni ishlab chiqish uchun madaniy-ma'rifiy muassasalarda ham ishlar olib borildi, tarixiy hududa yashovchi aholining turmush tarzi hamda uy-muzeylari o'rganildi. Ushbu ish natijalari kichik arxitekturaviy shakllar dizayni va uslublarini shakllantirish bezak elementlarini aniqlash hamda dizayn muammolarini hal qilish imkonini berdi [2].

Buning uchun hudud tarixi va madaniyatiga oid manbalarni o'rganib chiqildi. Tarixiy obidalar hajmiy fazoviy yechimlari va ularda ishlatilgan bezak elementlaridanham kichik arxitekturaviy shakllar na'munalarini yaratishda foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida shaharda kichik arxitektura obyektlarini loyihalashni zamonaviy tashkil etish va muhit hisobga olinadi. Muammo bo'yicha uslubiy va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish amalga oshirilgan, Umumiy nazariy tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Dizayn metodologiyasiga asoslangan tizimli yondashuv va muammolarni hal qilishning turli usullariga asoslangan yangi usullarni ishlab chiqish ijodiy jarayonni tashkil etish bo'yicha nazariyalar va tavsiyalar o'rganildi. Dizaynning barcha bosqichlarini tahlil qilish dizaynda ushbu sohadagi ko'plab mualliflar tomonidan tuzilgan va o'rganilgan: S. M. Mixaylov, A. S. Mixaylova, V.S. Kulikov, A. G. Naumov, V. N. Tkachev, A.V. Efimov, G. B. Minervin, V. T. Shimko, B. G. Barxi va boshq.) Uslubiy topilmalar, qiziqarli va o'ylangan uslubiy metodlarni aniq ochib beradi shahar atrof-muhitining kichik arxitektura obyektlarini (art

obyektlarini) loyihalashdagi qoidalarini o'z ichiga oladi [3].

Result and discussion.

Kichik arxitekturaviy shakllarga qo'yiladigan talablar. "Qulay shahar muhitini shakllantirish" ular obodonlashtirish uchun kichik arxitekturaviy shakllarni loyihalash tamoyillari, me'yorlari, qoidalarini belgilaydi.

- Ekologik toza, bardoshli, asosan metall, yog'och, tosh kabi, materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Tashqi tasirlarga chidamsiz shisha materiallardan elementlar yoki qismlarni yasashga yo'l qo'yilmaydi.
- Ergonomikani ta'minlash zarur. Odamlarga obyektlardan foydalanish qulay bo'lishi uchun elementlarning o'lchamlari va parametrlarini to'g'ri hisoblash muhimdir.
- Elementlarni ta'mirlanadigan qilib qo'ying. Kiyinchalik, shikastlangan taqdirda, strukturaning estetik ko'rinishini uzoq vaqt davomida saqlab qolgan holda, modullar tezda yangilari bilan almashtirilishi mumkin.
- Xavfsizlikni ta'minlash. Shikastlanishning oldini olish uchun o'tkir burchaklar, silliq sirtlarga yo'l qo'yilmaydi.

Kichik arxitekturaviy shakllar joyni tez va xavfsiz o'zgartirib, hududni keng maydonga aylantirish imkonini berishi lozim. Lekin konsepsiyani va dizaynni ma'lum bir joy uchun maxsus ishlab chiqish muhimdir. Shundagina loyiha shaharning imidjini mustahkamlovchi diqqatga sazovor maskanga aylantiradi [4].

Kichik arxitekturaviy shakllar atrof-muhitning muhim tarkibiy qismi bo'lib, binoning umumiy tarkibini to'ldiradi. Ularning uslubiy shakllanishiga ta'sir e'tuvchi birqancha omillar mavjud [5-8].

1-Jadval. Kichik arxitekturaviy shakllar uslubini shakllantiruvchi omillar.

Dizayn omillari	Atrofdagi arxitektura bilan o'zaro kompozitsion uyg'unligi
	Dizayn yechimlar va ishlatiladigan materiallar
	Ergonomik qulayligi, obyektlar orasidagi optimal oralig' saqlanganligi
	Umumiy rang yechimining arxitekturaviy muhitga mosligi
	Modulliligi, ansambl elementlari bilan, o'lchamlari o'zaro mutanosibligi
	Nisbatlar va hajmlarning izchillig kombinatsiyasi, shakllar va teksturalar

Tarixiy hududlar uchun kichik arxitektura shakllarini loyihalashda mavjud tarixiy kontekstning yaxlitligini hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash muhimdir. Har qanday yangi dizayn elementlari atrofdagi binolar, landshaft va madaniy meros obyektlari bilan uyg'un bo'lishi kerak [9,10].

An'anaviy dizayn elementlari va tarixiy hududning me'moriy xususiyatlari yangi dizaynga kiritilishi kerak. An'anaviy materiallar va qurilish texnikasidan foydalanish umumiy dizaynning haqiqiylikini saqlashga yordam beradi (2,3-rasmlar).



Figure 2. An'anaviy dizayn elementlari va materiallari



Figure 3. An'anaviy dizayn elementlari qo'llangan kichik arxitektura shakllar

Umuman olganda, tarixiy hududlar uchun kichik arxitektura shakllarini dizayn-kod ishlab chiqishda saqlashga bo'lgan ehtiyoj funktsionallik va estetik jozibadorlikka bo'lgan ehtiyojni inobatga olish kerak. Yangi dizayn mavjud tarixiy kontekstni uyg'un bo'lishi va an'anaviy dizayn elementlarini o'z ichiga olishi, mahalliy materiallardan foydalanishi, chidamlilik va barqarorlikka ahamiyat berilishi kerak [11].

Kichik arxitektura shakllar atrof-muhitning zarur elementidir. Uning tashqi ko'rinishi va xilma-xilligi atrof-muhitning qulayligiga bevosita ta'sir qiladi [12-16].

1. Turli xil tashqi mebellardan, skameykalar, stullar, stollar va boshqalardan foydalanish tavsiya etiladi.
2. Yurish marshrutlarida, yashil maydonlarda uzoq dam olish uchun va qirg'oqlarda orqa tomoni suyangichli qulay skameykalar, skameykali stollar bo'lishi kerak.
3. Ko'chalar bo'ylab yurish marshrutlarida qisqa dam olish uchun orqasi bo'lmagan skameykalar qo'yilishi kerak.
4. Material sifatida yil davomida foydalanish imkoniyati uchun o'rindiqlik uchun yog'och tanlanishi kerak.
5. Granit yoki beton skameykalarga ruxsat berilmaydi. Ushbu dizayn Kichik arxitekturaviy shakllarni noqulay va muhitmi jozibadorligini kamayishiga tasir qiladi.

Conclusion.

Kichik arxitekturaviy shakllar uchun dizayn kodeksini ishlab chiqish binoning umumiy

kontseptsiyasiga mos keladigan obyektlarni yaratishga va uning estetik va funktsional xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradigan muhim jarayondir. Samarali dizayn kodini ishlab chiqish uchun siz tadqiqot o'tkazishingiz, qoidalarni belgilashingiz, misollar ishlab chiqishingiz va test o'tkazishingiz kerak. Dizayn kodi turli loyihalarga qo'llanilsa, kichik arxitekturaviy shakllarni loyihalashda uslubiy bir xillikni yaratishga yordam beradi.

Shunday ekan kichik arxitekturaviy shakllar joylashtirishga oid umumiy qoidalari ishlab chiqish juda muhimdir. Kichik arxitekturaviy shakllar yakka tartibdagi turar-joy va ko'p xonadonli qurilish hududlarida, turistik infratuzilmaga ega joylarda, tabiiy hududlarda joylashgan bo'lishi mumkin. Hududlarning dizayn kod qoidalarni ishlab chiqish va shu asosida joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

- Kichik arxitekturaviy shakllar piyodalar va transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik qilmaslik uchun tranzit piyodalar zonasi va yo'l harakati qismidan tashqarida joylashgan bo'lishi kerak.
- Uzoq muddatli ishlashni ta'minlash uchun kichik arxitekturaviy shakllar elementlarining dizayni barqaror va bardoshli bo'lishi kerak.
- Obyektlarni tartibga solishda ulardan foydalanishda qulayligini hisobga olish kerak.
- Kichik arxitekturaviy shakllarning dizayni atrofdagi tarixiy obidalarni idrok etishdan chalg'itmasligi kerak, aksincha arxitektura yoki landshaft dizaynini, atrofdagi makonni to'ldirishi kerak.
- Metall elementlarni yorqin ranglarda bo'yash taqiqlanadi dizayn kodiga mos kelmaydi. Tabiiy ranglar va materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Yog'och elementlarni qoplamali bo'yoq bilan qoplash shart emas. Yog'och uchun himoya kompozitsiyadan foydalanish yoki bu elementlarni ishlovsiz qoldirish yaxshiroqdir.
- Hudud turiga qarab bazan zamonaviyroq minimalist dizayndagi KASHlardan foydalanish mumkin.

Demak xulosa qilib aytish mumkinki arxitekturaviy obidalarni asrab-avaylashda kichik me'moriy shakllar muhim rol o'ynaydi. Tarixiy hududlar o'zining noyob madaniy va me'moriy merosi bilan ajralib turadi. Ko'pincha bunday hududlarni saqlab qolish urbanizatsiya va tijoratlashuvning kuchayishi kabi turli tasir va qiyinchiliklarga duch keladi. Xususan, madaniy-tarixiy ahamiyatga ega binolar va hududlarni tiklashda kichik arxitekturaviy shakllari bir-birini to'ldiruvchi vazifasini bajarishi lozim. Tarixiy hududlarni saqlashda kichik arxitekturaviy shakllarning roli juda katta.

REFERENCES

1. Z. Adilov, Z. Matniyozov. The Proposals Of Landscape Solutions For Highways Environment. International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 04, April 2020.
2. Д.В. Першина, А.В. Лянцевич., ПРОЕКТИРОВАНИЕ МАЛЫХ АРХИТЕКТУРНЫХ ФОРМ В ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ТРАДИЦИЯХ (на примере объектов традиционной культуры Верхней Вычегды).

3. E.V. Vasilenko, P.G. Vasilenko, O.S. Goltseva, T.E. Belyakova. Features of designing small architecture objects in the design of environmental space. Siberian Industrial Days International Forum IOP Publishing. Materials Science and Engineering 944 (2020).
4. ДИЗАЙН – КОД. СЕЛА ТЕРИБЕРКА.Задизайнено в 2022 году в тудии Артемия Лебедева.
5. Аресеньев Ф. А. Ульяновский монастырь у зырян. Сыктывкар Коми кн. изд-во,. С
6. N.O'. RAXIMBOYEV., kat. o'q. J.X. TAJIBAEV., MILLIY ORNAMENTLAR ASOSIDA KICHIK ARXITEKTURAVIY SHAKLLARDAN LANDSHAFT DIZAYNIDA FOYDALANISH., Vol. 17. Issue 2. June, TAQI 2022., 109-113 bet.
7. Малые формы в застройке и благоустройстве городов., Колли Н.Я., Артамонов В.А., Тарасова Е.А., Толстой И.А. - М.: Стройиздат, 1964 г.
8. Дизайн-код. Правила размещенияи оформления нестационарных торговых объектов в пскове/ Псков 2018 у
9. Elmurodov, S.S., Matniyazov, Z.E., Rasul- Zade, L.U., Tajibaev, J.Kh. (2021). Development trends of non-stationary trade facilities., ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (12), pp. 495-503.
10. Z.Adilov, Z. Matniyozov, J. Tojiboev, U. Daminova, U.Saidkhonova. Improvement Of The Environmental Situation Of The Aral Region T hrough Landscape Design. International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 04, April 2020.
11. Adilov, Z. X., Matniyazov, Z. E., Tadjibaeva, D. M., Tadjibaev, J. X., & Elmurodov, S. S.(2020). Landscape design projects for 4r-173 call-mountain road side. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 12, 16238-16245.
12. S. Elmurodov, Z. Matniyazov, J. Tajibaev, U. Saidxonova, D. Abdujabborova., Principles of Location of Non- Stationary Trade Objects in the Zoning Method., urnal of Architectural Design., Volume 13, December 2022., ISSN: 2795-7608., pp. 8-13.
13. Valieva, S. A., & Matniyazov, Z. E. (2022). Landscape Environment of Recreational Spaces in Business Centers. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 213-221
14. kizi Asatova, D. G., & Matniyazov, Z. E. (2022). The Spatial Formation and Architecture of the Fire Temple of Zoroastrianism. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 488-500
15. Taqi, S. U. Z., Taqi, G. S. B., Taqi, A. D. A., & Abduhabirovna, S. D. (2021). Hotel architecture in historical cities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 207-208.
16. Z.Adilov, Z.Matniyozov, A.Vetlugina, D.Xudoyarova. Educational Buildings Solutions For Typical Landscape Design. International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 04, April 2020.